

ZAMONAVIY INGLIZ ADABIYOTI VA UNING RIVOJLANISH
BOSQICHLARI.

Murodullayeva Zarnigor Baxtiyorovna

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Xorijiy til va adabiyoti
fakulteti 1-bosqich talabasi.*

S.M.Begmatova

Ilmiy rahbar: Filologiya fanlari doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz adabiyotining rivojlanish yo'lidagi bosqichlarini yoritib beradi. Bunda Buyuk Britaniya Yozuvchilarining urush yillaridan oldingi va keyingi, XX asr va Renessans bosqichidagi adabiyot olamining xususiyatlari va asosiy namoyondalari, ularning hayot yo'llari haqida ham ma'lumotlar berib o'tildi.

Kalit so'zlar. Zamonaviy adabiyot, Renessans, adabiyotlarning insoniyatga ta'siri, olimlar, bosqichlar.

Аннотация. В статье рассматривается развитие английской литературы на различных исторических этапах. Особое внимание уделяется творчеству писателей Великобритании в периоды до и после военных лет, а также литературным процессам XX века и эпохи Ренессанса. Анализируются ключевые особенности этих периодов и их влияние на общественное сознание. Кроме того, затрагиваются основные вехи жизненного и творческого пути известных писателей.

Ключевые слова. Современная литература, Ренессанс, влияние литературы на общество, писатели, этапы развития.

Annotation. This article explores the development of English literature through its major historical stages. Particular attention is paid to the works of British writers before and after the war years, as well as to literary trends of the twentieth century and the Renaissance. The article highlights the key features of these periods and their impact on society, while also touching upon the main milestones in the lives and creative careers of prominent writers.

Key words. Modern literature, Renaissance, the influence of literature on society, writers, stages of development.

KIRISH.

Har bir davlatda bo'lganidek ingliz xalqining ham o'ziga xos tarixi, adabiyoti va san'ati mavjud. **RENESSANS**- XIV-XVI asrlar oralig'ida Yevropada yuz bergan buyuk madaniy va intellektual harakat bo'lib, u o'rta asrlar dunyoqarashidan voz kechish, inson shaxsining qadr-qimmatini ulug'lash va antik davr madaniyatiga qaytish g'oyalariga asoslangan. "RENESSANS"- atamasi lotincha renasci -"qayta tug'ilish" so'zidan olingan bo'lib, inson tafakkurining yangilanishi, san'at adabiyotning yuksalishi jarayonini ifodalaydi. Angliyada renessans davri asosan, Yelizavetta I erasi va Lakob eralarini o'z ichiga oldi.

XVII asr ingliz adabiyoti.

Bu davr tarixda ingliz adabiyotining katta o'zgarishlar yuz bergan davr hisoblanadi. U davrda ingliz inqilobi va restavratsiya davri sodir bo'ladi. Bu davrda yozuvchilar siyosiy va ijtimoiy masalalarga katta e'tibor qaratadilar, shu bilan insonning ichki dunyosi va psxologiyasini o'rganishga harakat qiladilar. XVII asr ingliz adabiyoti Uyg'onish davrining yakuni va klassitsizmning boshlanishi bilan ajralib turadi. Bu davrdagi adabiyot namoyondalariga WILLIAM SHAKESPEAREni yaqqol misol qilib ko'rsatish mumkin. U XVI-XVII asrlarda yashab ijod qilgan. Uning "ROMEO AND JULIET", "HAMLET", "OTHELLO" va shunga o'xshash ko'plab asarlari mavjud. Uilyam Shekspir asarlari asosan inson tabiati, murakkab hissiyotlar va ijtimoiy ziddiyatlarni ochib berishga qaratilgan. Uning ijodi inson psixologiyasi, sevgi, hokimiyat uchun kurash, sadoqat va xiyonat kabi umumbashariy mavzularni chuqur tahlil qiladi.

Zamonaviy ingliz adabiyoti.

Hozirgi davr ingliz adabiyotida turli yo'nalish va uslublarda asalar yaratilmoqda. Ayni paytda adabiyot olamida fantastik janrining o'rni kun sayin ortib borayotganligi haqida ta'kidlash lozim. Fantastik, fantastik janrlar haqida gap ketganda ingliz adiblari Gelbert Uells, Oskar Uayld asarlari ko'z oldimizda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu adiblar XIX-XX asr fantastik adabiyotining yulduzlaridir.

Xulosa.

Har bir davr o'z qadr-qiyamatiga ega bo'lib, unda yaratilgan turli xil janrdagi asarlar doimo insonlarning diqqatini o'zoga jalb qila olgan, ayniqsa, ingliz adabiyotining durdona asarlari nafaqat Buyuk Britaniya balki butun dunyo ixlosmand kitobxonlarining adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini ortirib kelmoqda. Bundan tashqari, adabiyot olamiga sayohat qilish nafaqat inson ongini, balki uning tafakkur olaminining, dunyoqarashining kengayishiga turtki bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1."Zamonaviy ingliz adabiyoti" jurnali G.T.Bobonazarova-2025.
- 2."Renessans davrida ingliz adabiyotining rivojlanishi" jurnal M.Z.Muxiddinovna- 2025.
- 3.Chirchiq davlar universiteti "Ingliz tili adabiyoti tarixi o'quv dasturi" -2024.